

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 67 sahifa.
2026-yil, fevral

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	



“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBİ: AMALIY TAHLİL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI

Xayitboyeva Laylo Oybekovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil izlanuvchisi

Email: [I.khayitboeva@tsue.uz](mailto:khayitboeva@tsue.uz)

ORCID: 0009-0007-8983-9265

Annotatsiya. Maqolada “Andijondonmahsulot” AJ misolida xarajatlarning strategik boshqaruv hisobi holati amaliy ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi. 2015–2024-yillar dinamikasi xarajatlar o’sish sur’ati daromadlar o’sishidan yuqori ekanini va rentabellik pasayishini ko’rsatdi. Natijalarga tayangan holda qiymat zanjiri bo’yicha xarajatlarni segmentatsiyalash, EVA asosidagi budjetlash, ABC–BSC–EVA integratsiyasi hamda mas’uliyat markazlari bo’yicha nazorat mexanizmlarini joriy etish bo’yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so’zlar: strategik boshqaruv hisobi; xarajatlar; qiymat zanjiri; ABC; BSC; EVA; budjetlash; mas’uliyat markazlari; rentabellik; don mahsulotlari sanoati.

Abstract. This paper analyzes strategic cost management accounting practices at Andijondonmahsulot JSC using firm-level data for 2015–2024. The dynamics show that costs grew faster than revenue, resulting in declining profitability. Based on the findings, the study proposes practical recommendations: value-chain-based cost segmentation, EVA-driven budgeting, integrated ABC–BSC–EVA analytics, and responsibility-center control mechanisms.

Keywords: strategic management accounting; costs; value chain; ABC; BSC; EVA; budgeting; responsibility centers; profitability.

Аннотация. В статье на примере АО «Andijondonmahsulot» выполнен анализ стратегического управленческого учета затрат на основе данных за 2015–2024 гг. Динамика показателей демонстрирует опережающий рост затрат по сравнению с выручкой и снижение рентабельности. На основе результатов предложены практические рекомендации: сегментация затрат по цепочке ценности, бюджетирование на основе EVA, интеграция ABC–BSC–EVA и контроль по центрам ответственности.

Ключевые слова: стратегический управленческий учет; затраты; цепочка ценности; ABC; BSC; EVA; бюджетирование; центры ответственности; рентабельность.

KIRISH

Globalashuv va kuchayib borayotgan raqobat sharoitida korxonalarning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlashda strategik boshqaruv hisobi boshqaruv qarorlarini ma’lumot bilan ta’minlaydigan muhim instrument hisoblanadi. Strategik yondashuvda xarajatlar nafaqat hisobga olinadi, balki qiymat yaratish jarayoni bo’yicha tahlil qilinadi va korxona strategiyasi bilan integratsiyalashadi (Bromwich, 1990; Porter, 1985).¹

¹ Bromwich, M. (1990) ‘The Case for Strategic Management Accounting’, Accounting, Organizations and Society, 15(1–2), pp. 27–46; Porter, M.E. (1985) Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. New York: Free Press.



O'zbekistonda korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda xarajatlarni optimallashtirish masalasi davlat strategik hujjatlarida ham ustuvor yo'nalish sifatida qayd etilmoqda. Shu bois, yirik ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini amaliy jihatdan takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Strategik boshqaruv hisobi konsepsiyasining nazariy asoslari bir qator ilmiy maktablar tomonidan ishlab chiqilgan. Bromwich (1990) strategik boshqaruv hisobini raqobat ustunligini shakllantiruvchi axborot tizimi sifatida talqin qiladi. Johnson va Kaplan (1987) an'anaviy boshqaruv hisobi zamonaviy strategik ehtiyojlarni to'liq qondirmasligini ko'rsatib, yondashuvlarni yangilash zarurligini ta'kidlaydi.²³

Porter (1985) taklif etgan "qiymat zanjiri" yondashuvi xarajatlar va qiymat yaratish bo'g'inlarini birgalikda ko'rib chiqish orqali strategik xarajat tahlilini chuqurlashtiradi. Kaplan va Norton (1996) tomonidan ishlab chiqilgan BSC modeli strategik maqsadlar va ko'rsatkichlarni moliyaviy hamda nomoliyaviy indikatorlar orqali muvozanatli baholashni ta'minlaydi. Cooper va Kaplan (1991) hamda Horngren, Datar va Rajan (2015) ABC yondashuvini xarajat drayverlarini aniqlash va maqsadsiz xarajatlarni qisqartirishda samarali instrument sifatida ko'rsatadi.⁴⁵⁶

Mahalliy adabiyotlarda boshqaruv hisobi tizimini milliy sharoitga moslashtirish, budjetlash va ichki nazoratni kuchaytirish masalalariga Abdug'aniev (2003), Pardayev va hamkorlar (2025) hamda Kostaev (2020) e'tibor qaratgan.⁷

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda "Andijondonmahsulot" AJning 2015–2024-yillardagi moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida dinamik va qiyosiy tahlil o'tkazildi; kuzatish, guruhlash, qiyosiy tahlil va statistik usullardan foydalanildi. Amaliy diagnostika bosqichida korxona mutaxassislari bilan suhbat va ekspert baholash elementlari qo'llanib, xarajatlar boshqaruvidagi muammolar to'plami aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

2015–2024-yillar bo'yicha tahlil natijalari xarajatlar o'sish sur'ati (4,5 barobar) tushum o'sishidan (3,3 barobar) yuqori ekanini ko'rsatdi. Natijada sof foyda o'sishi cheklangan va rentabellik pasaygan. 1-jadvalda korxonaning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari dinamikasi keltiriladi (1-jadval).

1-jadval. "Andijondonmahsulot" AJ faoliyatining 2015–2024-yillardagi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (mlrd so'm)⁸

Yil	Tushum	Xarajatlar (jami)	Mahsulot tannarxi	Davr xarajatlari	Soliqlar	Sof foyda
2015	1186,0	756,1	549,5	194,0	12,6	297,0
2016	1603,0	850,6	623,0	211,5	16,1	434,5
2017	1807,0	1056,6	771,0	265,9	19,7	392,9
2018	1621,0	1259,3	920,0	318,0	21,3	210,0
2019	2102,0	1420,0	1045,0	342,0	33,0	322,0
2020	2315,0	1551,7	1162,0	358,0	31,7	351,0
2021	3073,0	2074,0	1598,0	447,0	29,0	554,0
2022	3209,0	2967,0	1946,0	680,0	341,0	558,0
2023	4000,0	3189,0	2224,0	660,0	305,0	967,0
2024	3665,0	3403,0	2204,0	822,0	377,0	472,0

2 Bromwich, M. (1990) 'The Case for Strategic Management Accounting', Accounting, Organizations and Society, 15(1–2), pp. 27–46.

3 Johnson, H.T. and Kaplan, R.S. (1987) Relevance Lost: The Rise and Fall of Management Accounting. Boston: Harvard Business School Press.

4 Kaplan, R.S. and Norton, D.P. (1996) The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. Boston: Harvard Business School Press.


5 Cooper, R. and Kaplan, R.S. (1991) 'Profit Priorities from Activity-Based Costing', Harvard Business Review, 69(3), pp. 130–135; Horngren, C.T., Datar, S.M. and Rajan, M.V. (2015) Cost Accounting: A Managerial Emphasis. 15th edn. Harlow: Pearson.

6 Porter, M.E. (1985) Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. New York: Free Press.


7 Abdug'aniev, A.A. (2003) Boshqaruv hisobini tashkil etish muammolari va ularning yechimlari. Toshkent: TMI; Mexmonov, S.U., Pardayev, A.X. and To'laganov, A.A. (2025) Boshqaruv hisobiga kirish. Toshkent: ILM-MA'RIFAT; Kostaev, U.U. (2020) Strategik boshqaruv hisobini tashkil etish va takomillashtirish: DSc dissertatsiyasi. Toshkent.

8 Manba: muallif tomonidan tuzilgan ("Andijondonmahsulot" AJning 2015–2024 yillardagi moliyaviy hisobotlari asosida).

Jadvaldan ko'rinadiki, 2015-yilda sof foyda tushumning taxminan 25 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 13 foizgacha kamaygan. 2024-yilda xarajatlarning keskin oshishi (tushumning 93 foizigacha) foyda marjasini qisqartirgan. Bu holat xarajatlarni strategik boshqarish bo'yicha instrumentlarni korxona amaliyotiga joriy etish zarurligini ko'rsatadi (1, 2-rasm).



1-rasm. 2021–2024-yillarda tushum va sof foyda dinamikasi (mlrd so'm)⁹



2-rasm. 2021–2024-yillarda tushum va jami xarajatlar dinamikasi (mlrd so'm)¹⁰

Natijalar korxonada xarajatlarni rejalashtirish va nazorat qilish asosan qisqa muddatli moliyaviy natijalar doirasida olib borilayotganini, strategik rejalashtirish bilan uzviy integratsiya yetarli emasligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan quyidagi amaliy tavsiyalar taklif etiladi.

1) Qiymat zanjiri asosida xarajatlarni segmentatsiyalash: Porter (1985) yondashuviga tayangan holda xarajatlarni qiymat zanjiri bo'g'inlari kesimida hisobga olish va bo'linmalar kesimida tahlil qilish tavsiya etiladi. Bu yondashuv xarajatlarning qaysi bo'g'inda shakllanayotganini aniq ko'rsatib, tejamkorlik "rezervlari"ni topishga yordam beradi.¹¹

2) EVA asosida budjetlash va chetlashmalar tahlili: Stewart (1991) konsepsiyasidan kelib chiqib, jarayonlar bo'yicha smeta va KPillar belgilash, oylik monitoring va chetlashmalar tahlilini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.¹²

9 Manba: muallif tomonidan tuzilgan (korxona moliyaviy hisobotlari asosida).

10 Manba: muallif tomonidan tuzilgan (korxona moliyaviy hisobotlari asosida).

11 Porter, M.E. (1985) Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. New York: Free Press.

12 Stewart, G.B. (1991) The Quest for Value. New York: HarperBusiness.



3) ABC–BSC–EVA integratsiyasi: ABC xarajat drayverlarini aniqlash (Cooper va Kaplan, 1991), BSC strategik maqsadlar bilan indikatorlarni bog'lash (Kaplan va Norton, 1996), EVA esa bo'limlar bo'yicha qiymat yaratishni o'lchash uchun qo'llanadi. Integratsiya boshqaruv qarorlarini "xarajat-qiymat-strategiya" zanjiri bo'yicha asoslashga yordam beradi.¹³

4) Mas'uliyat markazlari bo'yicha hisob va rag'batlantirish: bo'limlar kesimida xarajat me'yorlari, javobgarlik va rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish zarur (Anthony va Govindarajan, 2007). Bu yondashuv ichki nazoratni kuchaytirib, resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi.¹⁴

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar "Andijondonmahsulot" AJda daromadlar oshib borayotganiga qaramay, xarajatlar o'sishi tezlashgani tufayli rentabellik pasayayotganini ko'rsatdi. Strategik boshqaruv hisobi elementlarini uyg'unlashtirib joriy etish xarajatlarni samarali boshqarish, tannarxni pasaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdug'aniev, A.A. (2003) Boshqaruv hisobini tashkil etish muammolari va ularning yechimlari. Toshkent: TMI.
2. Anthony, R.N. and Govindarajan, V. (2007) Management Control Systems. 12th edn. Boston: McGraw-Hill/Irwin.
3. Atkinson, A.A., Kaplan, R.S., Matsumura, E.M. and Young, S.M. (2012) Management Accounting: Information for Decision-Making and Strategy Execution. 6th edn. Boston: Pearson.
4. Bromwich, M. (1990) 'The Case for Strategic Management Accounting', Accounting, Organizations and Society, 15(1–2), pp. 27–46.
5. Chenhall, R.H. (2003) 'Management control systems design within its organizational context: findings from contingency-based research', Accounting, Organizations and Society, 28(2–3), pp. 127–168.
6. Cooper, R. and Kaplan, R.S. (1991) 'Profit Priorities from Activity-Based Costing', Harvard Business Review, 69(3), pp. 130–135.
7. Drury, C. (2015) Management and Cost Accounting. 9th edn. Andover: Cengage Learning.
8. Hansen, D.R., Mowen, M.M. and Guan, L. (2009) Cost Management: Accounting and Control. 6th edn. Mason, OH: South-Western Cengage Learning.
9. Horngren, C.T., Datar, S.M. and Rajan, M.V. (2015) Cost Accounting: A Managerial Emphasis. 15th edn. Harlow: Pearson.
10. Johnson, H.T. and Kaplan, R.S. (1987) Relevance Lost: The Rise and Fall of Management Accounting. Boston: Harvard Business School Press.
11. Kaplan, R.S. and Norton, D.P. (1996) The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. Boston: Harvard Business School Press.
12. Kostaev, U.U. (2020) Strategik boshqaruv hisobini tashkil etish va takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. Toshkent.
13. Merchant, K.A. and Van der Stede, W.A. (2017) Management Control Systems. 4th edn. Harlow: Pearson.
14. Mexmonov, S.U., Pardayev, A.X. and To'laganov, A.A. (2025) Boshqaruv hisobiga kirish. Toshkent: ILM-MA'RIFAT.
15. Nikolaeva, O.E. and Alekseeva, O.V. (2003) Strategicheskiy upravlencheskiy uchët. Moscow: Editorial URSS.
16. Porter, M.E. (1985) Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. New York: Free Press.
17. Porter, M.E. (1996) 'What is Strategy?', Harvard Business Review, 74(6), pp. 61–78.
18. Shank, J.K. and Govindarajan, V. (1993) Strategic Cost Management: The New Tool for Competitive Advantage. New York: Free Press.
19. Simons, R. (1995) Levers of Control: How Managers Use Innovative Control Systems to Drive Strategic Renewal. Boston: Harvard Business School Press.
20. Stewart, G.B. (1991) The Quest for Value. New York: HarperBusiness.
21. "Andijondonmahsulot" AJ (2015–2024) Moliyaviy hisobotlar (ichki ma'lumotlar).

13 Cooper, R. and Kaplan, R.S. (1991) 'Profit Priorities from Activity-Based Costing', Harvard Business Review, 69(3), pp. 130–135; Kaplan, R.S. and Norton, D.P. (1996) The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. Boston: Harvard Business School Press.

14 Anthony, R.N. and Govindarajan, V. (2007) Management Control Systems. 12th edn. Boston: McGraw-Hill/Irwin.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100